

## **ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN KUNDALIK HAYOTDA UNUMLI FOYDALANISH DAVR TALABI**

*Badalova Sevara Imomqulovna*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lif kafedrasi stajyor-o'qituvchisi,  
Jizzax, O'zbekiston  
e-mail: [sevara9743@gmail.com](mailto:sevara9743@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalardan kundalik hayotimizda unumli foydalanish yuzasidan muloxazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zлari:** ta'lif samaradorligi, zamonaviy texnologiya, vaqt unumdorligi, yoshlar, ta'lif va tarbiya, rivojlanish.

Bugungi kunda Prezidentimizning tashabbusi va davlatimizning dono siyosatini markazida yosh avlodni ta'lif-tarbiyasi turmoqda. Yosh avlod ta'lif – tarbiyasiga katta imkoniyatlar eshigi keng ochilmoqda. Jumladan, umumiyo o'rta ta'lif maktablarida ta'lif-tarbiyani amaliy saviyasini oshirish ishlari keng ko'lama amalga oshirilmoqda. Shu boisdan e'lon qilingan umumiyo o'rta ta'lifning milliy o'quv dasturlari loyihasida umumta'lif fanlarining muvofiq o'quv dasturlarini yaratish muammosi ko'tarilgan. Umumiyo o'rta ta'lif maktablarida o'qitiladigan amaliy fanlar ham yosh avlod ta'lif tarbiyasida muhim o'rinn tutadi. Umumiyo o'rta ta'lif maktablarida amaliy fanlar yosh avlodni iqtidorlikka, ijodkorlikka yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, amaliy fanlar guruhiha kiruvchi Texnologiya fani umumiyo o'rta ta'lifda o'quvchilarda umummehnat ko'nikma mahoratlarini shakllantirishda muhim fanlardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan umumiyo o'rta ta'lifni barcha amaliy fanlar qatorida Texnologiya fanini istiqbolli milliy o'quv dasturlarini yaratish bugungi kunda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Quyida 6-sinflar uchun amaldagi DTS va o'quv dasturiga asosan Texnologiya fanidan uchun mavzularni o'tish bo'yicha takliflarimizni beramiz.

6-sinflarga Texnologiya fani Texnologiya va dizayn yo'nalishida 2-4 o'quv soatida yog'ochsozlik va metallsozlik sanoatlaridagi materiallarga ishlov beruvchi zamonaviy texnika va texnologiyalar asosidagi ishlab chiqarish haqida, yig'ish jarayonida qatnashadigan texnika va texnologiyalari haqida, 38-40 soatlik mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi bobini 18-20 soatlik yog'ochga ishlov berish texnologiyasida yog'och materiallarni tayyorlash jarayoni, yog'ochlarning nuqsonlari, durodgorlikda ishlatiladigan yelimplar, yog'ochlardagi nuqsonlarni aniqlash, yog'ochlarning fizik va mexanik xossalari, yog'ochning zichligi va nam ligini o'rganish, yog'ochning zichligi va namligini o'rganish haqida, lazerli

metr, lazer darajasi (uroven), xatkash, bir nechta shtiftli moslama, metall andoza uya, yarim o'yqli brikmalardan foydalanish kabi zamonaviy o'lchash va rejalash asboblari haqida, konstruksiyalash hujatlari haqida, iskanalarni charxlash, randa tig'larini charxlash, arra tishlarini charxlash, yog'ochga ishlov beradigan asboblarni ishga tayyorlash, saqlash va sozlash qoidalari haqida, yog'ochga ishlov beradigan elektrlashtirilgan qo'l asboblari yordamida buyumlar yasash, elektr lobzik arra, elektrlashtirilgan qo'l frezasidan foydalanishni o'rganish, yog'ochga ishlov beradigan qo'l (o'yish-teshish) devor uyalarni o'yish, uyalarni parmalash va frezalash uchun moslama, elektr o'ygich, elektr randa, elektr freza, elektr parmalash qurilmalari, eletr shurup buragich, kabi qo'l va elektr asboblari bilan ishlash texnologiyalari haqida, yelimdon, yelim qaynatgich va yelim sifatini aniqlovchi qurilmalarni ishlatalishi haqida, yog'ochlarga ishlov berishda buyumlarni konstruktsiyalash ishlari, yog'och buyumlarni tirnoqli biriktirish, elektr kuydirgich (vijigatel) yordamida yog'och materiallarga badiiy ishlov berish, Yog'och materiallarga kuydirib ishlov berish, cho'plardan applikatsiya ishlash, cho'plardan to'qish, yog'ochga naqsh o'yish, intarsiya (yog'och mozaikasi) va boshqalar kabi yog'och materiallariga badiiy ishlov berish texnologiyalari haqida, yog'ochlarga ishlov beruvchi tokarlik stanoklari va ularda ishlash, zagotovka tanlash va uni stanokga o'rnatish, ish rejimini tanlash haqida urgatish mumkin.

6-sinfda 10-12 soatlik metallargaga ishlov berish texnologiyasida metallarning fizik, mexanik va texnologik xossalari, xususiyatlari, po'lat va cho'yanlarni ishlab chiqarilishi, kontstruksion va asbobsozlik po'latlarining tur lari hamda markalari, rangli metall qotishmalaridan quymalar ishlab chiqarish haqida, sortli prokatning profillari: kvadrat, oltiqirra, doira, shveller, rels, teng yonli burchak, tavrli to'sin, ikki tavrli to'sin haqida, shtangensirkul, mikrometr, UN tipidagi universal burchak o'lchagich burchak o'lchagich, UM tipidagi univer sal burchak o'lchagich, rejalash plitasi, tagliklar kabi nazorat-o'lchash asboblar bilan ishlash texnologiyalari haqida, zubiloni charxlash, bolg'aga dasta o'rnatish, chilangularlik arrasi polotnosini o'rnatish kabi Metallga ishlov beradigan asboblarni sozlash, ta'mirlash va saqlash texnologiyalari haqida, metallarga shaberlash va ish qalash orqali ishlov berish. Sirtlarni shaberlash ishlari, sirtlarni yuqori darajada pardozlashda ishqalash ishlarini ahamiyati, nadfil va shaberlar bilan ishlash haqida o'rgatish mumkin.

6-sinf uchun mo'ljallangan shu bobda payvandlashda arralar, chizg'ichlar, rejalash bolg'alari, to'g'rilaqichlar, payvandlash simlari, uchliklar, payvanlangan tutash tirkichlar, turli xildagi elektrod tutqichlar, brezent kurtkalar, shimlar, bosh kiyimlari va oddiy oinalari, zubilolar, po'lat cho'tka, to'siq shchitlar hamda niqob lar bilan ishlash texnologiyalari haqida, gaz alangasida payvandlashda asetilin generatorlari va himoya zatvorlari, kalsiy, karbit-kislородли va asetilinli ballonlar,

reduktor, gorelka, jez ignalar, suv quyilgan idishlar, ximoya ko'zoynaklari, bolg'a, zubilo, po'lat cho'tka, hamda kam uglerodli po'latdan ishlangan 250 x 150 yoki 6 mm o'lchamli plastinalardan foyladanib ishlash texnologiyalari kabi payvandlash ishlari texnologiyalari haqida, kavsharlagichlar, kavsharlash lampasi, induktorli davriy kavsharlagich, kavsharlash trubkalari, elektr toki bilan qizdiriladigan kavsharlagichlar, alanga yordamida qizdiriladigan kavsharlagichlar kabi kavsharlash ishlari texnologiyasi haqida, tokarlik vint qirqar va parmalash stanogining ishlash prinsipi, tokarlik vint qiqar va parmalash stanogi bilan ishlashda xavfsizlik texni kasi qoidalari haqida, sortli prokatdan buyumlar yasash texnologiyasi, shamdon uchun taglik yasash texnologiyasi, metalldan uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, bo'shagan metall ichimlik idishidan uy-ro'zg'or buyumlari yasash, metalldan yasalgan buyum yuzasini bezak va korroziyaga qarshi qoplamlar bilan qoplash kabi metall buyumlarga bezak berish texnologiyasi haqida o'rgatish mumkin.

6-sinf uchun mo'ljallangan shu bobda 6 soatda polimerlar va metallarning birikmasidan hosil bo'lgan (materiallar) konstruksiyalar, polimerlardan kompozit buyumlar tayyorlash texnologiyasi haqida, pezinalarning xossalari, pezina materiallarining xossalari ko'ra qo'llanilishi, keramika xossalari, keramik kompozit materiallar va buyumlar tayyorlash, plastmassalarning ishlatilish sohalari, olinish usullari, polimerdan uy-ro'zg'or, turmush, maktabda foydalaniladigan buyumlar tayyorlash, o'quv qurollari uchun taglik yasash, plastik idishlardan dekorativ (harakatlanuvchi modellar) buyumlar yasash kabi kompozit materialarga ishlov berish texnologiyasi haqida o'rgatish mumkin.

6-sinf o'quvchilarilarga o'qitishga mo'ljallangan 6 soatlik 3-bobdag'i energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish bulimida elektr energiya – zamonaviy texnologik jarayonning asosi, kelajak elektr energetikasi, sodda elektromontaj ishlarini bajarish, shtepsel vilkasi, uzaytirgichli elektr o'tkazgichar, vklyuchatellar, patron, o'tkazgich simlarning turlari, elektromontaj ishlarida ishlatiladigan asbob uskunalar, o'tkazgich simlarni ulab-uzaytirish, elektr armaturalarga ulash, yog'ochsozlik va metalsozlik sanoati elektr jihozlari haqida, elektrodvigatellar, kontrollerlar, bir lampali stol lampasini yasash (past kuchlanishda ishlaydigan), sodda elektron mikrosxemalar yig'ish, quyosh energiyasidan foydalanuvchi issiqxonalarini maketini tayyorlash haqida urgatish mumkin.

6-sinf o'quvchilariga 4-6 soatlik mexatronika – lego education "oddij mexa nizmlar" 4-bobda uch o'lchamli modellashtirish asoslari, uch o'lchamli modellarni qurish, robotlarni boshqarish asoslari, mobil robotlarni boshqarish, boshqariladigan robot yasash haqida o'rgatish mumkin.

Shu sinfdagi 5 bobdag'i 6-8 soatlik ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari deyilgan nomini "Ijtimoiy iqtisodiy turmushdagi kichik ta'mir ishlari

texnologiyasi” deb atab, unda pol qoplamlari va shiftlarni kichik ta’mir ishlari. Eshik va romlarni kichik ta’mirlash ishlari, deraza shishalarini kesish ishlari, devorga o’rnatiladigan buyumlarni qotirish usullari, turli buyumlarni (soat, hoshiyali ramka) devorga qotirish, barcha turdagи qulflarni o’rnatish va ularni kichik ta’mirlash ishlari, elektr yuritmali uy tomorqa moslama va jihozlarini kichik ta’mir ishlarini o’z ichiga olgan uy-inshot qism detallarini kichik ta’mir ishlari texnologiyalarini o’rgatish mumkin.

6-sinflarda 4-6 soatlik energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish bo’limida elektr energiya – zamonaviy texnologik jarayonning asosi, kelajak elektr energetikasi, maishiy elektr jihozlari, elektr choynak, elektr isitgich va pishirgichlar, mufel pechlari, bir lampali stol lampasini yasash, pazandachilik va tikuvchilikda elektron qurilmalar, sodda elektron mikrosxemalar yig‘ish, quyosh energiyasidan foydalanuvchi issiq xona maketini tayyorlash haqida o’rgatish mumkin.

6-sinflarda 4-6 soatlik mexatronika – lego education “oddiy mexanizmlar” bobida uch o’lchamli modellashtirish asoslari, uch o’lchamli modellarni qurish, robotlarni boshqarish asoslari, elektrosvigatel, kontrollerlar, Mobil robotlarni boshqarish, boshqariladigan robot yasash haqida o’rgatish mumkin.

Shu sinfdagi 5 bobdagi 6-8 soatlik ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari deyilgan nomini “Ijtimoiy iqtisodiy turmushdagi kiyim buyumlarini kichik ta’mir ishlari texnologiyasi” deb atab, oilaviy harajatlarni hisoblash, oziq-ovqat harajatlari va iqdisod qilish yo’llari, harajat, iqdisod va daromad, maishiy kimyoviy vositalar va ulardan foydalanish usullari, o’smir yoshdagilarni kiyimlarini kichik ta’mirlash ishlari, uy-joy buyumlarini ko’rpa to’shak, yopinchiquarilash, postel jihozlarini kichik ta’mirlash ishlari, uy-joy buyumlariga qarab turish, hamom jihozlariga qarab turish haqida o’rgatish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X. Didakticheskiye osnovi intensifikatsii protsessa obucheniya v proftexuchilishax.-T.:NII PP, 1992.-73 b.
2. Davlatov K. D. va b. Mexnat va kasb ta’limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi.-Toshkent: O’qituvchi, 1992.- 320 b.
3. Axliddin R. Umumiy o’rta ta’limni takomillashtirishning tashkiliy pedagogik asoslari: diss. ped. fan. nomzodi 1998 y.- 146 b.

